

O‘ZBEK XALQ AMALIY SAN’ATI ORQALI O‘QUVCHILARDA MILLIY IFTIXOR TUYG‘ULARINI SHAKLLANTIRISHDA USTOZ-SHOGIRD AN’ANALARINING O‘RNI

Doliyeva Nafisa Valijonovna

Navoiy Davlat Pedagogika instituti Tasviriy san’at
va amaliy bezak san’ati 2-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek xalq amaliy san’ati orqali o‘quvchilarda milliy iftixor tuyg‘ularini shakllantirishda ustoz-shogird an’alarining o‘rni haqida nazariy ma’lumotlar keltirgan.

Kalit so‘zlar: Ustoz-shogird an’analari, ustoz, milliy qadriyat, vositalar, kasb-hunar, ta’lim.

THE ROLE OF THE TEACHER-DISCIPLE TRADITION IN THE FORMATION OF NATIONAL PRIDE IN STUDENTS THROUGH UZBEK FOLK ART

ABSTRACT

This article presents theoretical information about the role of the teacher-disciple tradition in the formation of national pride in students through Uzbek folk art.

Keywords: Master-disciple tradition, master, national value, tools, craft, education.

KIRISH

“O‘qituvchi va murabbiylar – yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir”

Sh.M.Mirziyoyev

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Ma’lumki, mustaqillik yo‘lida dadil borayotgan O‘zbekistonning bugungi kunida yoshlarini kamolotga intilish ma’naviy qadriyatlarni tiklash va Vatanga sadoqat tuyg‘ularini o‘stirishda o‘lkan tadbirlar olib borishda ustoz va murabbiylarning roli va ahamiyati juda kattadir. Buning uchun esa o‘zbek xalqning o‘tgan ajdodlari tomonidan yaratilib meros bo‘lib qolgan madaniy boyliklari xazinasiga xalq orasidagi “ustoz-shogird an‘analari” mamlakatni yuksaltirishda beqiyos o‘rin tutadi. Binobarin, bugungi kunda mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash yoshlarning o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan, har tomonlama rivojlangan shaxs etib voyaga yetkazish – “Ustoz-shogird” tizimining muhim va dolzarb masalasidir.

Muhtaram Prezidentimiz: “Ustoz-murabbiylarni mavjud imkoniyatdan to‘g‘ri va samarali foydalangan holda, avvalo, murojaatlarining mohiyatini xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodga yetkazish va hayotga joriy etishdan iborat”,¹ - deb ta’kidlaganlar. Shu jarayonda «Ustoz-shogird» an‘analarini hayotga qo‘llab, ta’lim jarayonida ma’lum muvaffaqiyatni qo‘lga kiritish eng muhim va dolzarb muammodir.

Bilamizki, o‘zbek xalqining madaniy qadriyatlari, ma’naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli kuch sanalgan ma’naviyat manbaidan oziqlanib, O‘zbekiston xalqi avloddan avlodga o‘tib kelgan o‘z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o‘ziga xos an‘analarini saqlab qolishga muvaffaq bo‘lgan. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratib kelingan g‘oyat ulkan, bebaho ma’naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligining sababi aslida shundandir.

Shuni e’tiborga olgan holda davlatimiz rahbari ta’limga, ta’limdagi — “Ustoz-shogird” tizimini mustahkamlashga juda katta e’tibor bermoqdalar. Aynan, — “Ustoz-shogird” tizimi yoshlarda kasbiy mahoratni tarbiyalash, ma’naviy-ma’rifiy salohiyatini

¹ Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O‘zbekiston, 2017.

oshirish, o‘z ustida izlanishi, bir so‘z bilan aytganda har tomonlama yetuk malakali kadrlarni shakllantirishda o‘ziga xos tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish mavjudligi bilan ahamiyatlidir. Oqibatda esa bu jarayon ilm-fan taraqqiyotini belgilab beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov shunday deb ta’kidlagan edilar: “Biz uchun, ma’naviyat, tarixiy va madaniy qadriyatlar, aholining ma’naviy, axloqiy holati, yosh avlodni tarbiyalash eng asosiy ustuvor vazifa bo‘lishi lozim”.

Inson o‘zi qiziqib tanlagan sohaning ustasi bo‘lsa, ongli hayot kechirish uchun zarur moddiy istaklar (rizq-nasiba butunligi, dasturxon to‘kinligi, qulay shart-sharoit) va ma’naviy ehtiyoj (poklanish, hayotdan mazmun va halovat topish) uyg‘unligiga erishadi. Istiqlool yillarida O‘zbekistonda taraqqiyotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar xalqimizning ezgu intilishlari negizi – Barkamol avlod orzusini ro‘yobga chiqarishga xizmat qilmoqda.

Bilamizki, ustoz degan sharaflı nomga sazovor bo‘lish har kimga ham nasib etmagan. Bu ulug‘ nomni olish uchun ko‘p yillar davomida murakkab sinovlardan o‘tishi lozim bo‘lgan. Ko‘plab mutaxassislar orasida bu sharaflı nomga kamdan-kam inson muyassar bo‘lgan.

Ustozlik – bu yoshlarni har tomonlama tarbiyalashdagi bir yo‘nalishi hisoblanadi. Lekin, bu an’ana oila, maktab kabi turli mazmundagi yoshlar tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi ijtimoiy institutlarning ta’lim-tarbiyaviy ta’sirlarni davomchisi sifatida ifodalanadi. Shuning uchun ham ustoz-shogirdlik faoliyatlarida oila, maktab kabi jamoalar faoliyatlari bilan hamkorlik amalga oshirilib, bir-birlarining ta’sir qilish kuchlari mustahkamlanib boradi. Ijtimoiy hayot tajribasining tasdiqlashicha insoniyatning bo‘lg‘usi ijtimoiy-siyosiy faolligi, ta’lim-tarbiyani avloddan-avlodga yetkazish asosida amalga oshirilishini tasdiqlaydi. Bunday yuqori darajadagi tasdiqlanishlar ustozlik faoliyatini ham yuqori darajada baholash zarurligini ifodalaydi. Ustozlarning faoliyati shogirdlarda vaqt ko‘rsatkichlarni umum davlat miqyosida amalga oshirishga o‘rnatishdan iborat. Bu jarayonda esa vaqtni qanday taqsimlash masalasini hal qilishda ustoz ko‘rsatmalari asosiy o‘ringa ega. Har qanday vaqtni

taqsimlashda maqsad, vazifa, vositalardan qanday foydalanish zarurligini o‘rgatib shogirdlarni bo‘sh vaqtlarini sarmazmun yo‘nalishda bilim, ko‘nikma, malakalar egallashga jalb qila bilish ustoz siymosini yana-da obro‘-e‘tiborli shaxsga aylantiradi. Shuni ham ta’kidlab o‘tish zarurki, ustoz-shogirdlik an‘anasining faqat moddiy-iqtisodiy tomoniga e‘tibor qilinadigan bo‘lsa bu faoliyat asosi hech qanday ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lmaydi.

Turkiy xalqlar qadimiy madaniyatining jahon taraqqiyotidagi o‘rni salmoqlidir. Xuroson, Movaraunnahr, Afrosiyob, So‘g‘diyona, Marokant, Turon, Turkiston va boshqa joylar butun dunyoga mashhur bo‘lib, tabarruk bu zaminda Ahmad Yassaviy, Al-Beruniy, Al-Forobiy, Ibn Sino, Mahmud Qoshg‘ariy, Alisher Navoiy singari buyuk allomalar hamda Spitamen, Shiroq, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Mahmud Tarobiy, Sohibqiron Amur Temur va temuriyzodalardak jasur o‘g‘lonlar dunyoga keldilar. Ular o‘z xalqining baxt-saodati, madaniyati uchun jisman va ma‘nan kurashdilar. Shuning uchun ham jahon ahli ularning ezgu amallarini olqishlab, hanuz tabarruk zotlar deya o‘z qalblarida muqaddas tutmoqdalar. Ular, ayniqsa yoshlarning tarbiyasiga, hunar va ilm olishiga katta e‘tibor berganlar va bunga doimiy ravishda chaqirib keldilar.

Qadimda milliy an‘ana bo‘yicha shogirdlikning o‘ziga xos odob-axloq qoidalari bo‘lgan. Chunonchi, Husayn Voiz Koshifiy bunday deydi: “Agar sendan shogirdlik odobi nechta, deb so‘rasalar, yettita degin. Avvalo, o‘z ishiga yaxshi munosabatda bo‘lish, ya’ni o‘z kasbini sevish; o‘z kasbiga e‘tiqod qo‘yish va unga ishonish; ustoz oldida haqsevar bo‘lish, o‘z nojo‘ya odatlarini tark etish; ko‘rish lozim bo‘lmagan hamma narsalardan nigohini olib qochish; eshitish mumkin bo‘lmagan barcha narsalarga quloq solmaslik; barcha noloyiq ishlardan qo‘l tortish; ustoziga zid bo‘lgan kishilar bilan muomala qilmaslik. Agar shogirdlikning asoslari nechta deb so‘rasalar, oltita degin: rostgo‘ylik, vafodorlik, mas‘uliyatlilik, nasihatni quloqqa olish, ozor bermaslik, sir saqlash. Shogirdlikning eng yaxshi xislati nima deb so‘rasalar, poklik

deb javob beriladi. Shogirdlikning noyob gavhari nima deb so‘rasalar, hamkasb do‘stlarini xushnud etish deb javob bergin”.²

Darhaqiqat, Mustaqillik yoshlar kamolotiga yangicha talablar ham qo‘ydi. Har qachongidan ko‘ra ko‘proq ichki va tashqi go‘zallikning axloq bilan birlashuviga ahamiyat kuchaydi. Yoshlardagi faqat tashqi ko‘rinish estetik madaniyatning yaxshi bo‘lishiga olib kelmasligi, balki ulardan axloqan pokiza, ma‘naviy dunyosi boy, sahovatli, iymonli, muomala madaniyati yuksak bo‘lish kabi umuminsoniy ahloqiy qadriyatlar ham talab etila boshlandi.

Binobarin, sog‘lom avlod tarbiyasi faqat jismoniy jihatdan chiniqqan, kamol topgan yoshlarnigina emas, shuningdek, sharqona axloq-odob va umumbashariy ma‘naviy qadriyatlar asosida tarbiya topgan insonni ham ko‘zda tutmog‘i lozim.

Zero buyuk alloma A.Avloniy aytganidek: tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir.

XULOSA

Ma‘lumki, xalq amaliy san‘ati kasb-hunar ta‘limi fanlari orasida o‘quvchilarni ma‘naviy sog‘lom, komil insonlar bo‘lib yetishishlarida keng imkoniyatlarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Binobarin, xalq amaliy san‘at asarlari va buyumlari insonning moddiy muhitini go‘zallashtirishga, estetik boyitishga xizmat qiladi, ayni paytda o‘zining ko‘rinishi, tuzilishi, xususiyatlari bilan insonning ruhiy holati, kayfiyatiga ta‘sir etadi, bezatilgan narsalar hayotda foydalanishidan tashqari badiiy qimmatini bo‘lgani uchun ham qadrlanadi³.

Oliy o‘quv yurtlarida bo‘lg‘usi mutaxassis o‘qituvchilarga tarbiyaviy ta‘sir qiluvchi ustoz-shogird an‘analari tajribasi amaliy tasdiqlangan omil sifatida ifodalanadi. Tez sur‘atda ilmiy-texnik rivojlanish jarayonini amalga oshirilib borishi natijasida ta‘lim jarayonining qirralari mukammallashib borayotganligi, ularning

² “Ta‘limda – Ustoz shogird tizimi – sifat va samaradorlik kafolati”. Respublika ilmiy-amaloiy onlayn konferensiya materiallari. 2020 y

³ O‘zbekiston san‘ati. H. Karamatov. N.Jo‘rayev va b. avtorlar jamoasi. “Sharq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T. 2001 y.

tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni, innovatsion uslublarni keng doirada kirib kelishi kabi hollar bo‘lg‘usi mutaxassislarni kasbiy taalluqliligi masalalarni aniqlash, ularga o‘z vaqtida yordam berish kabi masalalarga e‘tibor qaratish, ustoz-shogirdlik an‘analaridan o‘rinli foydalanish zarurligini keltirib chiqarmoqda. Uning asosida har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalab yetkazish masalalari o‘z ifodasini topdi.

Bugungi kunda yosh mutaxassislarni har tomonlama shakllantirishga e‘tibor har qachongacha nisbatan tezlashtirish ehtiyoji zamon talabiga aylandi, ularni kasbiy faoliyatini oshirishga qaratildi. Tarixiy sharoitlarining o‘zgarishi borasida to‘plangan tajribalarni yoshlar ongiga yetkazish shakllari ham o‘zgarib bormoqda. Mustaqillik sharofati tufayli ustoz-shogird an‘analarini yanada rivojlantirishning asosiy vazifalardan biri mustaqil O‘zbekistonni rivojlantirishga asos bo‘ladigan yangi ta‘lim tizimining tashkil etilishidir. 1997-yil 29-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida qabul qilingan “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun va Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi uni amalga oshirish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Hozirgi vaqtda kadrlar siyosatida olib borilayotgan islohotlar ustozlikni rasmiy va professional tartibda amalga oshirishni talab qiladi.

Demak, bu faoliyat asosida ixtiyoriylik tamoyili bilan bir qatorda, tizimli ravishda hamkorlik mazmunida har ikkala tomonini mutaxassislik darajasini yuqori darajaga ko‘tarishi ham o‘z ifodasini topadi. Ularni yuqori darajadagi umum mutaxassislik xususiyatlari bilan birgalikda madaniy muloqot, munosabat darajalari ham rivojlanib, shakllanib boradi. Ya‘ni ulug‘ mutafakkirlarining fikrlariga ko‘ra bo‘lg‘usi mutaxassisni har tomonlama shakllantirish uchun uni o‘zini ham har tomonlama bilish zarur degan talablar “Ustoz shogird” an‘analari asosida amalga oshiriladi.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, mustaqillik davrida ko‘plab milliy qadriyatlarimiz xalqimizga, hayotimizga qaytdi. Shular qatorida bugun biz so‘z yuritgan bobomeros qadriyat – ustoz-shogirdlik an‘analarini yangi sharoitda, yangi mazmunda hayotga tatbiq etish imkoniyatlari yuzaga keldi. Bugun maktab, kollej va oliy o‘quv yurtlarida o‘qiyotgan farzandu nabiralarimiz o‘z muallimlariga “ustoz” deb

murojaat qilishi urfga kiribdi. Bu – yaxshilik alomati. Zero, tilda qayta-qayta takrorlangan kalom vaqti kelib, qalbga muhrlanadi. Qalbdan joy olgan soʻz insonning eʼtiqodiga aylanadi.⁴

“Hunarli kishi xor boʻlmas”, deydi xalqimiz. Ammo keyingi paytlarda farzandlarimizning usta hunarmandlar qoʻlida kasb-hunar oʻrganishiga yetarli eʼtibor bermay qoʻydik. Vaholanki, ustoz koʻrgan oʻgʻil-qizlarimiz domlasiga munosib boʻlishga intiladi, hayotda ularning koʻmagi bilan oʻz oʻrnini topadi. Shu bois, hududlarda “ustoz-shogird” anʼanasini yanada kuchaytirsak, oʻylaymanki, nur ustiga aʼlo nur boʻladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYHATI: (REFERENCES)

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi —Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisidagi PF-4947-son Farmoni// Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2017 y., 6-son.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: Oʻzbekiston, 2017. – 488 b.
3. Mirziyoyev Sh. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yoʻlida yanada hamjihat boʻlib, qatʼiyat bilan harakat qilaylik. //Xalq soʻzi gaz., 2017-yil, 16-iyun.
4. Mirziyoyev Sh. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yoʻlida yanada hamjihat boʻlib, qatʼiyat bilan harakat qilaylik. //Xalq soʻzi gaz., 2017-yil, 16-iyun.
5. Oʻzbekiston Respublikasining —Taʼlim toʻgʻrisida va — “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi toʻgʻrisida”gi qonunlari. //T.: Sharq, 1997.
6. M.Imomnazarov. Maʼnaviyatimizning takomil bosqichlari. –T.: Sharq, 1996, 46 bet.
7. Tursunov Q. Oʻzbekiston musulmonlari idorasi. Toshkent viloyati vakili “Hidoyat” jurnalining 2011 yil, 12-sonidan

⁴ Qurbonali Tursunov, Oʻzbekiston musulmonlari idorasi Toshkent viloyati vakili “Hidoyat” jurnalining 2011 yil, 12-sonidan

8. H. Karamatov. N.Jo‘rayev va b. avtorlar jamoasi. O‘zbekiston san’ati. “Sharq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T. 2001 y.
9. “Ta’limda – Ustoz shogird tizimi – sifat va samaradorlik kafolati”. Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari. 2020 y.
10. www.ziyo.net
11. www.ares.uz
12. www.edunet.uz
13. www.bilimdon.uz

